



**O‘ZBEKISTONDA HUQUQIY-DEMOKRATIK DAVLAT QURISH  
JARAYONIDA INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINING KAFOLATI.**

*SUBANOV Olimjon Suyarkul o‘g‘li*

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi  
Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar kafedrasida  
katta o‘qituvchisi, dotsent (+99893) 551-71-30

**Annotasiya.** Mazkur maqolada O‘zbekistonda huquqiy-demokratik davlat qurish jarayonida inson huquq va erkinliklarining kafolatlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** inson huquq va erkinliklari, huquqiy-demokratik davlat, xavfsiz shahar, xavfsiz mahalla, xavfsiz ko‘cha, konstitutsiya.

**ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРАВ И СВОБОД ЧЕЛОВЕКА В ПРОЦЕССЕ  
СТРОИТЕЛЬСТВА ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО ГОСУДАРСТВА,  
ОСНОВАННОГО НА ВЕРХОВЕНСТВЕ ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ.**

**Аннотация.** В статье рассматриваются гарантии прав и свобод человека в процессе строительства правового и демократического государства в Узбекистане.

**Ключевые слова:** права и свободы человека, правовое и демократическое государство, безопасный город, безопасный район, безопасная улица, конституция.

**ENSURING HUMAN RIGHTS AND FREEDOMS IN THE PROCESS OF  
BUILDING A DEMOCRATIC STATE BASED ON THE RULE OF LAW IN  
UZBEKISTAN.**

**Annotation.** The article examines the guarantees of human rights and freedoms in the process of building a legal and democratic state in Uzbekistan.

**Key words:** human rights and freedoms, legal and democratic state, safe city, safe area, safe street, constitution.

Barchamizga ma‘lumki, bosh qomusimiz bu - Konstitutsiya. Konstitutsiya nafaqat yuristlar uchun balki O‘zbekistonning har bir fuqarosi uchun dastur-ul-amaldir. Zero, har bir rivojlangan davlat o‘z milliy konstitutsiyasiga egadir va har qanday huquqiy demokratik davlatda inson huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat deb tan olingan ekan, shu davlatlarning konstitutsiyasida eng muhim qoidalar sifatida belgilangan. Bu borada xalqaro hujjatlarda qayd etilgan qat‘iy qoidalar mavjud bo‘lib, ulardan: 1948-yilda qabul



qilingan “Inson huquqlari bo‘yicha umumjahon deklaratsiyasi”, 1966-yilda qabul qilingan “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro paktlarda inson huquqlari-erkinliklari va ularni muayyan holatlarda cheklash bo‘yicha ham qoidalar aks ettirilgan. Ushbu qoidalar qonuniylik, maqsadga muvofiqlik va zaruriyat prinsiplaridan kelib chiqib qo‘llanadi.

Xususan, **qonuniylik prinsipi** – inson huquqlari va erkinliklarini faqat qonuniy asosda cheklash mumkinligini bildirsa, **maqsadga muvofiqlik prinsipi** – inson huquqlari va erkinliklarini cheklashda xalqning roziligini ifodalaydi. Davlatning, shaxsning huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga aralashuvi zaruriyat tamoyili asosida amalga oshiriladi. Bunda shaxsga yetkaziladigan zarar o‘rnini qoplash masalasi diqqat-markazida bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shaxsning huquq va erkinliklari davlat tomonidan kafolatlanishi va himoya qilinishi belgilangan bo‘lsa-da, asosiy qonunning o‘zi hamda qonunchilik hujjatlarida ham inson huquq va erkinliklarini cheklashga oid qoidalar mavjud. Bu qoidalar qachon va qanday amalga oshirilishini quyidagi 3 ta holatda ko‘rish mumkin.

- *birinchidan*, boshqa shaxslarning huquqlariga zarar yetkazmaslik uchun cheklovlar o‘rnatish. Masalan, qarzdorga nisbatan sud va boshqa organlarning hujjatlariga asosan ijro ishi yuritish jarayonida ushbu organlar tomonidan belgilangan cheklovlar. Xususan, O‘zbekiston Respublikasidan chiqishiga vaqtincha cheklov joriy qilinishi yoki davlat ijrochi tomonidan qarzdorning hisob-varag‘ida saqlanayotgan pul mablag‘larini xatlanishi uning o‘z hisob-varag‘idan foydalana olmasligi bunga misoldir.

- *ikkinchidan*, shaxs tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik yoki jinoyat uchun jazo sifatida belgilash. Bu cheklashlar sud qarori yohud hukmi asosida amalga oshiriladi. Xususan, shaxsni ma‘muriy qamoqqa olish, O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma‘muriy tarzda chiqarib yuborish (*chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi*), muayyan huquqdan mahrum qilish (*masalan, avtotransport vositasini haydash huquqidan yoki ma‘lum sohada (lavozimda) ishlashdan vaqtincha mahrum qilish cheklash*), ozodlikdan cheklash yoki mahrum qilish bilan bog‘liq jazolar bunga misoldir.

- *uchinchidan*, davlat xavfsizligi va jamoat tartibini saqlash maqsadida qo‘llaniladigan cheklovlar. Xususan, pandemiya e‘lon qilingan davrda karantin joriy etilishi munosabati bilan shaxslarning erkin harakatlanishining cheklanishi yoki favqulodda vaziyat joriy qilingan hududlarda ma‘lum vaqt doirasida ayrim harakatlarning cheklanishi bunga misoldir. Biz ham rivojlangan davlatlar fuqarolari kabi davlatimiz,



millatimiz, o'zimiz va qolaversa kelajak avlodimiz uchun ham yangi O'zbekistonda qabul qilinishi rejalashtirilayotgan yangi Konstitutsiyaga befarq emasmiz.

Huquqiy-demokratik davlatning asosiy belgilaridan biri — inson huquq va erkinliklarining himoya qilingani va kafolatlanganidir. Mustaqil O'zbekistonning siyosiy-huquqiy taraqqiyotida inson manfaatlarini ustuvor qiymat sifatida belgilash hamda uni davlat siyosatining markaziga qo'yish muhim qadam bo'ldi. Yangi O'zbekiston sharoitida bu yo'nalishdagi islohotlar nafaqat qonunchilik sohasida, balki amaliyotda ham keng ko'lamda amalga oshirilmoqda.

Har bir davlat o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lini tanlar ekan, xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan eng muhim maqsad va vazifalarini o'zining Konstitutsiyasi – Asosiy qonunida mustahkamlab oladi. Binobarin, o'z xalqining xohish-irodasi, dili va tilidagi ezgu niyatlariga hamohang Konstitutsiyaga ega bo'lgan mamlakat o'zi belgilagan yuksak marralardan hech qachon og'ishmasdan, doimo oldinga qarab boradi.

Yangilangan Konstitutsiyamizning birinchi moddasida O'zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deb, qat'iy belgilab qo'yilgani tarixiy ahamiyatga ega [1]. Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, xalqimizning xohish-irodasi bilan Asosiy qonunda muhrlangan bu prinsiplar – mamlakatimizning taraqqiyot yo'li va taqdirini, uning kelajagini belgilab bergan ushbu “beshta ustun” hech qachon o'zgartirilmaydi. Zero, bu tamoyillar faqat va faqat xalqimiz, Vatanimiz manfaatlarini himoya qilishni, tengsiz va buyuk ne'mat – mustaqilligimizni asrab-avaylash, uni yanada mustahkamlash va kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirishni ko'zlaydi. Gapiirishga oson. Istiqloldni asrab-avaylash, tinchlik va barqarorlikni asrab qolish haqida. Buning uchun mashaqqatli mehnat, ter to'kish kerak bo'ldadi. Davlatimiz rahbari bu borada qator vazifalarga to'xtalib o'tdi. *Birinchi*dan, milliy xavfsizlikni ta'minlash, Qurolli Kuchlar jangovar salohiyatini oshirishga qaratilgan ishlar yangi bosqichga olib chiqiladi. *Ikkinchi*dan, “xavfsiz shahar”, “xavfsiz mahalla”, “xavfsiz ko'cha” konsepsiyalari jadal amalga oshiriladi. *Uchinchi*dan, totuvlik, millatlararo do'stlik va bag'rikenglik muhitini yanada mustahkamlash uchun bor kuch va imkoniyatlar safarbar etiladi. Negaki, aynan millatlararo totuvlik 130 dan ziyod millat va elatlar istiqomat qiladigan O'zbekistonimizning eng katta boyligi. *To'rtinchi*dan, dunyodagi hozirgi murakkab vaziyatda O'zbekiston tinchliksevar tashqi siyosatni davom ettirib, uzoq va yaqin davlatlar bilan do'stlik aloqalarini, barcha sohalarda o'zaro hamkorlikni rivojlantirib boraveradi [2].

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligi va suverenitetini ta'minlash maqsadida faqat milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda bundan buyon ham o'zi tanlagan mustaqil taraqqiyot yo'lida tashqi siyosatini qat'iy davom ettiradi. Korrupsiyaga qarshi kurashish



sohasida tegishli idoralar bilan birgalikda mahalliy davlat hokimiyati, sog'liqni saqlash, sport, oliy ta'lim, qurilish, kambag'allikni qisqartirish va bandlik tizimidagi xodimlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar, ayniqsa yo'l qo'yilayotgan korrupsiyaviy holatlarning sabab va shart-sharoitlari tahlil qilinib, tegishli vazirlik va idoralarning kengaytirilgan yig'ilishlarida ularning rahbarlari va mas'ul xodimlari ishtirokida tanqidiy muhokama qilinib, zarur chora-tadbirlar belgilandi. "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun va uni amaliyotga samarali joriy etish chora-tadbirlari yuzasidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida belgilangan talablar ijrosini ta'minlash choralari ko'rilmoqda. Maqsad, Konstitutsiyamizda qat'iy belgilab qo'yilganidek, insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizligiga erishish, uning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zid keladigan har qanday harakatlarga qarshi kurashish, hech shubhasiz, eng dolzarb vazifalarimizdan biridir.

Xullas, davlatimiz rahbarining mamlakatimiz oldida turgan eng dolzarb vazifalarga, Konstitutsiyaning har bir moddasi, har bir bandi bajarilishi lozimli haqidagi fikrlarni har birimizni yanada mas'uliyatli bo'lishga, yurt manfaati uchun halol va vijdonan ishlashga da'vat etishi bilan e'tiborlidir. Chiqariladigan xulosa shundan iboratki, O'zbekiston nafaqat iqtisodiy islohotlarni davom ettiradi, balki jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash uchun ham intiladi. Zero, Konstitutsiyamizda ilk bor, O'zbekiston Respublikasiga huquqiy davlat degan ta'rif berilgani bejiz emas. Bu – avvalambor barcha sohada qonun ustuvorligi ta'minlanadi, degani. Prezidentimiz qayd etganlaridek, bundan buyon, qonunlardagi noaniqliklar inson foydasiga hal bo'ladi. Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish uchun sudlarning odil va mustaqil ish yuritishini albatta amalda ta'minlashimiz zarur. Shu maqsadda, Asosiy qonunimizda hech kim sud qarorisiz 48 soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emasligi belgilandi. Erkinlikni cheklashga faqat sud qarori asosida yo'l qo'yilishi haqidagi qoida mustahkamlandi. Ayblanuvchiga o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik, ya'ni "sukut saqlash" huquqi birinchi marta alohida belgilab qo'yildi. Advokatlar maqomi oshirilib, ularning tergovchi va prokuror bilan teng vakolatga ega ekani qayd etildi. Albatta, Asosiy qonunga kiritilgan bu ilg'or yangiliklarni amalda joriy etish oson bo'lmaydi. Buning uchun yurtdoshlarimizning o'zlari ham qonuniy huquqlari uchun kurashishlari talab etiladi. "Qars ikki qo'ldan chiqadi", deganlaridek, tergovchi, prokuror, sudya, advokatlarning bilim va malakasi, ma'naviy dunyosini yuksaltirish bilan birga, aholining ham huquqiy madaniyatini oshirish, dunyoqarashini o'zgartirish talab etiladi.

Bir so'z bilan aytganda, Yangi O'zbekistonning Konstitutsiyasi mamlakatimizning yangi bir rivojlanish davrini boshlab beryapti. Qolaversa, Bosh qomusimiz Uchinchi Renessansning poydevori, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu, albatta, barchamizdan juda



katta mas'uliyat va talabchanlikni, o'z o'rnida, javobgarlikni talab qiladi. Ushbu omil Konstitutsiyani jamiyat hayotining barcha jabhalarida to'g'ridan-to'g'ri va bevosita qo'llash amaliyotiga o'tish imkonini berar ekan, xalqimiz Asosiy qonunning hayotbaxsh kuchi va ta'sirini o'z kundalik turmushida teran his etaveradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi yangi taxrirdagi Konstitutsiyasi  
<https://lex.uz/docs/6445145>
2. Konstitutsiya – huquq va erkinliklarimizning mustahkam kafolati.  
[https://uza.uz/oz/posts/konstitutsiya-huquq-va-erkinliklarimizning-mustahkam-kafolati\\_715320](https://uza.uz/oz/posts/konstitutsiya-huquq-va-erkinliklarimizning-mustahkam-kafolati_715320)



---

**Research Science and  
Innovation House**